

SO'ROQ KATEGORIYASI VA UNING VERBAL SHAKLLARI

Suvonova N.N.¹, Karipova A.K.²

Annotatsiya:

Ushbu maqolada fransuz tilidagi so'roq kategoriyasi va uning ifoda vositalari xususida fikr yuritiladi. Xususan, fransuz tilida so'roq so'zlarnig ma'nosiga ko'ra turlari, murakkab struktur xususiyatlarga ega bo'lgan so'roq so'zlar nomemklaturasi, gapda ishlatilinish xususiyatlariga ko'ra turlari tahlil qilingan.

Key words: so'roq kategoriyasi, so'roq so'zlar, ifoda usullari, so'roq ma'nosi.

Fransuz tilida so'roq ma'nosi bir necha usullar orqali ifodalanadi va ular so'roq gaplar deb ataladi. Biz ushbu maqolamizda fransuz tilida so'roq kategoriyasining ifoda usullari xususida fikr yuritmoqchimiz.

Xususan, so'roq gaplar fransuz tilida besh xil usul bilan yasaladi (Сувонова Н., 2010, b.11). Bular quyidagilardan iborat :

- 1) oddiy inversiya : Ce soir va-t-il au cinéma ?
- 2) murakkab inversiya : Ce soir Pierre va-t-il au cinéma ?
- 3) est-ce que yordamida : Est-ce que Pierre va au cinéma ?
- 4) ohang orqali : Pierre va au cinéma ?
- 5) So'roq so'z yordamida : Pourquoi Pierre va au cinéma ?

Hozirgi zamon fransuz tilida so'roq ma'nosining har bir grammatik shakli keng tarqalgan bo'lib, ular orasidan faqat so'roq so'z yordamida savol ma'nosini ifodalash o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra turli xil ko'rinish va ifoda vositalarini o'z ichiga oladi. Shu sababli, biz ham quyida so'roq so'z yordamida so'roq ma'nosining ifodalanishi xususida to'xtalmoqchimiz.

Fransuz tilida so'roq so'zlar ma'nosiga ko'ra uchga bo'linadi (Arrive M., Gadet. F., Galmiche M., 1986, p. 402). Bular quyidagilardan iborat :

1. So'roq ravishlari (les adverbes interrogatifs) : où? quand ? comment ? pourquoi ? combien ? ;
2. So'roq olmoshlari (les pronoms interrogatifs) : qui, que, quoi, etc.;
3. So'roq determinativlari (les determinants interrogatifs) : quel, quelle, quels, quelles.

Yuqorida keltirilgan so'roq so'zlarning bunday turlari gaplardagi o'z funkstional xususiyatlariga ko'ra xilma-xillikni tashkil etadi. Bular orasida so'roq olmoshlari (les pronoms interrogatifs) gapda faqat ot so'z turkumiga xos bo'lgan so'zlarning o'zini savol ma'nosi zamiriga yashirish uchun xizmat qilsa, so'roq determinativlari (les determinants interrogatifs) esa o'sha ot so'z turkumiga xos bo'lgan so'zlarning ma'lum bir xususiyatini savol ma'nosi zamiriga yashirish uchun xizmat qiladi. Biroq so'roq ravishlarining (les adverbes interrogatifs) gapdagi bunday xususiyati boshqalaridan ancha farq qilgani holda uarning so'roq ma'nosini ifodalash diapozoni kengroq bo'lib hisoblanadi, ya'ni ular gapning ikkinchi darajali bo'laklaridan holning vaqt, o'rin-joy, holat va vosita holi kabi turlariga savol berish uchun xizmat qiladi. Ular ishtirokidagi so'roq gaplar so'roq so'zli so'roq gaplar bo'lib hisoblanadi. Fikrimizning isboti sifatida quyidagi misollarga e'tibor qilaylik:

- 1) So'roq olmoshlari orqali:

Qui a apporté ce livre ? – Kim bu kitobni olib keldi ?

Que faire ? – Nima qilmoq kerak ?

- 2) So'roq determinativlari orqali:

Quelle fleur aimez-vous ? – Qanday gulni yaxshi ko'rasiz ?

Quels livres préférez-vous ? – Qanday kitoblarni yoqtirasiz ?

- 3) So'roq ravishlari orqali:

Où allez-vous ? – Siz qayerga boryapsiz?

Quand revenez-vous ? – Siz qachon qaytasiz ?

Agar ularni gapdagi struktur xususiyatlari jihatidan tahlil qilsak, ular orasida eng murakkab struktur va grammatik xususiyatlarga ega bo'lgan so'roq so'zlar bu - so'roq olmoshlari bo'lib hisoblanadi. Ularning struktur jihatdan ikki xil turi mavjud. Ular sodda va murakkab shakllardir. Bunda sodda shakllar qui-kim ?, que-nima?,

¹ Suvonova Nigorabonu Nizomiddinovna, filologiya fanlari nomzodi, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti

² Karipova Asel Kurmanbekovna, Katta o'qituvchi J.Balasagin nomidagi Qirg'iz Milliy universiteti

quoi - nima? shakllarini o'z ichiga olsa, murakkab shakllar esa qui est-ce qui-kim ?, qui est-ce que – kimni ?, qu' est-ce qui - nima ?, qu' est-ce que – nimani? kabi shakllarni o'z ichiga oladi .

Fransuz tilidagi so'roq ma'noli so'zlarni gap bo'laklariga nisbatan qo'llanishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqilganda ularning turli xil grammatik xususiyatlari namoyon bo'ladi. Masalan, so'roq olmoshlari gap bo'laklaridan ega, to'ldiruvchi va holga savol berish uchun xizmat qiladi. Fransuzcha qui so'roq olmoshi jonli ot bilan ifodalangan ega va to'ldiruvchilarga berilsa, que, quoi so'roq olmoshlari jonsiz ot bilan ifodalangan vositasiz to'ldiruvchilarga nisbatan qo'llanadi. Jonsiz ot bilan ifodalangan vositali to'ldiruvchilarga va holga nisbatan esa, faqat quoi so'roq olmoshi, jonli ot bilan ifodalangan vositali to'ldiruvchilarga va holga nisbatan esa, faqat qui so'roq olmoshi ishlatiladi. Buni quyidagi jadval orqali shunday tarzda aniqroq tasvirlash mumkin:

Sodda so'roq

olmoshi	So'roq olmoshi qo'llanadigan gap bo'laki	Gap bo'lagingining ifoda vositasi	Misollar
---------	--	-----------------------------------	----------

qui	1. Ega Jonli ot	-Qui parle ?	
-----	-----------------	--------------	--

-Suzanne parle.

2. Vositasiz to'ldiruvchi	Jonli ot	-Qui vois-tu ?	
---------------------------	----------	----------------	--

-Je vois Michel.

(à yoki de) + qui	Vositali		
-------------------	----------	--	--

to'ldiruvchi	Jonli ot	-A qui tu-parles ?	
--------------	----------	--------------------	--

-A mon ami.

(predlog) + qui	Hol	Jonli ot	-Avec qui chantes-tu ?
-----------------	-----	----------	------------------------

-Avec mon ami.

que	Vositasiz to'ldiruvchi	Jonsiz ot	-Que vois-tu ?
-----	------------------------	-----------	----------------

-Je vois une voiture

(à yoki de) quoi	Vositali		
------------------	----------	--	--

to'ldiruvchi	Jonsiz ot	-De quoi tu-parles ?	
--------------	-----------	----------------------	--

-De mon institut

(predlog)

+ quoi	Hol	Jonsiz ot	-Avec quoi écris-tu ?
--------	-----	-----------	-----------------------

-Avec le stylo.

Fransuz tilida so'roq olmoshlarining murakkab shakllari (qui est-ce qui, qui est-ce que, qu' est-ce qui, qu' est-ce que) ham xuddi yuqoridagi jadvaldagidek, otlarning jonli yoki jonsizligiga, savol tegishli bo'lgan gap bo'lakiga ko'ra qo'llaniladi. So'roq olmoshlarining sodda shakllari bilan murakkab shakllari gapda bir-birlarining o'rinarida qo'llanishi ham mumkin. Ularni ham gapda ishlatilinish xususiyatlariga nisbatan quyidagicha tarzdagi jadval orqali ifodalash maqsadga muvofiqdir:

Murakkab so'roq

olmoshi	So'roq olmoshi qo'llanadigan gap bo'laki	Gap bo'lagingining ifoda vositasi	Misollar
---------	--	-----------------------------------	----------

qui est-ce qui,	Ega Jonli ot	-Qui est-ce qui parle ?	
-----------------	--------------	-------------------------	--

-Suzanne parle.

qu' est-ce qui,	Ega Jonsiz ot	-Qu' est-ce qui est là ?	
-----------------	---------------	--------------------------	--

-Le livre est là .

qui est-ce que	Vositasiz to'ldiruvchi	Jonli ot	-Qui est-ce que vois-tu ?
----------------	------------------------	----------	---------------------------

-Je vois Michel.

qu' est-ce que	Vositasiz to'ldiruvchi	Jonsiz ot	-Qu' est-ce que vois-tu ?
----------------	------------------------	-----------	---------------------------

-Je vois une voiture

(à yoki de) + qui est-ce que	Vositali		
------------------------------	----------	--	--

to'ldiruvchi	Jonli ot	-A qui est-ce que tu-parles ?	
--------------	----------	-------------------------------	--

-A mon ami.

(à yoki de)

+ quoi est-ce que	Vositali		
-------------------	----------	--	--

to'ldiruvchi	Jonsiz ot	-De quoi est-ce que tu-parles ?	
--------------	-----------	---------------------------------	--

-De mon institut

(predlog) + qui est-ce que	Hol	Jonli ot	-Avec qui est-ce que chantes-tu ?
----------------------------	-----	----------	-----------------------------------

-Avec mon ami.

(predlog)

+ quoi est-ce que	Hol	Jonsiz ot	-Avec quoi est-ce que écris-tu ?
-------------------	-----	-----------	----------------------------------

-Avec le stylo.

Fransuz tilidagi navbatdagi so'roq ma'noli so'zlar, ya'ni so'roq determinativlari gap bo'laklaridan aniqlovchilarga savol berish uchun xizmat qiladi. Ularning nutqdagi ayrim xususiyatlari, ya'ni quel, quelle, quels,

quelles shakllarining talaffuzda bir xil talaffuz qilinishi nutqda ularni bir-biridan farqlash imkonini bermaydi. Ular o'rtasidagi qarama-qarshilik doimo faqat yozuvda son va rod orqali lezon (laison) hodisasi yordamida namoyon bo'ladi. Ular o'zbek tiliga tarjima qilinganda qanday, qanaqa deb tarjima qilinadi. Masalan :

Quels livres? –Qanday kitoblar?

Quels ouvrages? – Qanaqa asarlar?

Quelles idées? –Qanday g'oyalar ?

Fransuz tilida so'roq ravishlari (les adverbes interrogatifs) ham so'roq gap yasashda muhim o'rin egallaydi. Ularning shakllari où?-qayerda ?, quand? – qachon ?, comment ?-qanday ?, pourquoi ? - nima uchun ?, combien ?- nechta ? singari sanoqli variantlarni o'z ichiga oladi. Ular gaplarda qaysi gap bo'lagiga nisbatan qo'llanilishiga ko'ra besh xil semantik funksiyani bajaradi (Becherelle, 1990, p. 66). Bu holatni quyidagi jadval orqali aniq misollar bilan tushuntirib o'tamiz :

So'roq ravishlari Misollar

Savol berilayotgan gap bo'lagi

où?-qayerda ? Où allez-vous? – Qayerga boryapsiz ? o'rin holi

quand? – qachon ? Quand revenez-vous ?- Qachon qaytasiz ? payt holi

comment ? - qanday? Comment repondez-vous ?-Qanday javob berasiz ? holat holi

pourquoi ? - nima uchun ? Pourquoi parlez-vous ? – Nima uchun gapiryapsiz ? maqsad holi

combien ?- nechta ? Combien de cahiers ?- Nechta daftar ? miqdor holi

Fransuz tili grammatikasida so'roq so'zlar orqali savol berish usuli muhim ahamiyatga ega va ularning hozirgi kundagi shakllari yuqorida sanab o'tilgan uch xil guruhdagi so'zlar orqali namoyon bo'ladi. Bu usullar fransuz tilidagi so'roq kategoriyasining bir ko'rinishi bo'lib, ularni chuqur tadqiq etish lozim va bu holat fransuz tilini o'rganish va o'rgatish jarayonida yaxshi samara beradi

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Arrive M., Gadet. F., Galmiche M. *La grammaire d'aujourd' hui*. Paris, 1986. -720 b.
- [2]. Becherelle, *La grammaire pour tous* Paris, Hatier, 1990.-537 p.
- [3]. Larousse. *Grammaire. NVEF 2001*. -678 p.
- [4]. Suvonova N. *Matn tahlili, o'quv-uslubiy qo'llanma*. SamDCHTI, 2010. -44 b.
- [5]. Suvonova N.N. *Ҳозирги замон француз тилидаги икки хил графикали сўзлар хусусида* //Молодой ученый, -2020. С.-592-597
- [6]. Сувонова Н.Н. француз тили детерминативлари семантикасига доир. // international scientific conferences with higher educational institutions. 2023/10/5. –P. 215-218
- [7]. Suvonova N.N. *Le français. O'quv qo'llanma*. –Samarqand : SamDCHTI nashriyoti. 2024. - 104 p.
- [8]. Холбаев, Ф. (2025). *Transforming English Language Teaching: The Dual Impact of Artificial Intelligence on Personalized Learning and Educational Challenges*. Лингвоспектр, 2(1), 371-381.
- [9]. Turniyozov, N., Turniyozova, K., & Xayrullayev, X. (2009). *Struktur sintaksis asoslari*. Samarqand: SamDCHTI.
- [10]. Xayrullayev, X. Z. (2001). *So'z, so'z birikmasi va gapning predikativlikka munosabati*. Nomzodlik dis. avtoreferati.-Toshkent.
- [11]. Khayrullaev, K. Z. (2001). *The relation of word, word composition and sentence to the predicativeness*. Abstract of candidate dissertation.–Tashkent.
- [12]. Хайруллаев, Х. (2002). *Предикативлик ҳодисаси ва унинг ифода объектлари*.
- [13]. Хайруллаев, Х. (2009). *О лингвистической природе уровней языка и речи*. Вопросы филологических наук, (2), 78-79